

**BOLALAR O'RTASIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI
SHAKLLANTIRISH, MILLATCHILIKNI OLDINI OLISH HAMDA
AHILLIKNI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI**

1. Xasanova Shaxnoza Yuldashaliyevna

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 11-sonli IDUM psixologi

Ermatova Gulchehra Jumaboyevna

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 4-maktab psixologi

Xusainova Maxliyo Alisherovna

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar 5-maktab psixologi

ANNOTATSIYA: Ahillik – yagona oila yagona Vatan tuyg'usi, umumiy maqsad va manfaatga asoslangan, do'stlik, qon-qardoshlik, inoqlik va xayrixohlik natijasida hosil bo'ladigan ma'naviy va ruhiy yaqinlik.

Kalit so'zlar: bola, oila, kattalar mehnati, hurmat, ijobiy munosabat, jamoa, psixologik, rivojlantirish.

KIRISH

Ahillik hamma joyda – oilada ham, jamoada ham, mahallada ham, qo'ni-qo'shnichilikda, odamlarning o'zaro munosabatlarida ham hamisha kerak. Shuning uchun ahillik tushunchasini keng ma'noda ahil do'stlar, ahil oila, ahil qo'ni-qo'shnilar, ahil hamkasblar, ahil mahalla, ahil hamkor mamlakatlar kabi ma'nolarda ishlatish mumkin. Ahillik baynalmilallik, tolerantlik, bag'rikenglik, ma'naviy yakdillik, muayyan vazifani ko'pchilik yordamida bajarish, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi olijanob g'oyalarga yaqin turadi.

Ahillik xalqimizning qon-qoniga, ruhiga, mentalitetiga singib ketgan muqaddas tuyg'u hisoblanadi. Shuning uchun u xalqimizning urf-odatlarida, an'analarda, og'zaki ijod namunalari va kundalik turmush tarzida doimo ulug'lab, e'zozlab kelinadi. "Ahil bo'lsang, olamni olasan", "Jahonda do'stlikdan qudratli

kuch yo‘q”, “Oltovlon ola bo‘lsa – og‘zidagini oldirar, to‘rtovlon tugal bo‘lsa – unmaganni undirar” kabi hikmatli so‘z, aforizm va maqollar ahillik qanday buyuk fazilat ekanini ko‘rsatadi. Ahillik tushunchasini bir necha shartli atamalarga bo‘lib o‘rganish mumkin: kishilar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va ahillik, oilaviy ahillik, jamoaviy ahillik, qo‘ni-qo‘shnilar ahilligi, qon-qarindoshlar ahilligi, mahalla ahilligi, hamkasblar ahilligi, milliy ahillik, xalqaro ahillik, qit‘alararo ahillik, diniy bag‘rikenglik va hokazo. Kishilar o‘rtasidagi ahillik – ko‘proq ko‘cha-ko‘yda, tanish-notanish odamlar orasida, to‘y-ma‘rakalarda namoyon bo‘ladigan insoniy fazilat.

Oilaviy ahillik – er-xotin, farzandlar o‘rtasidagi, oila a‘zolarining o‘zaro muomalasida namoyon bo‘ladigan, ota-bobolarning e‘tiqodi, va‘z-nasihatlar, tarbiyasi, an‘ana va urf-odatlari orqali shakllanadigan munosabatlar yig‘indisi. Er-xotin ahil yashasa, bir-birini qanchalik izzat-hurmat qilsa, ardoqlasa, bu albatta, oilada kamol topayotgan farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir qiladi. Jamoaviy ahillik – bitta korxona, tashkilot yoki muassasada ishlaydigan jamoa a‘zolarining o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan fazilat. Bunda jamoa a‘zolari ishda bir-biriga beg‘araz, xolis yordam ko‘rsatadi. Jamoada muayyan vazifani bajarish niyatida amalga oshiriladigan ijobiy xatti-harakatlar uning a‘zolari tomonidan ma‘qullanishi mazkur jamoaning ahilligidan darak beradi. Agar jamoa ahil bo‘lmasa, belgilangan rejani bajara olmaydi. Natijada korxona inqirozga uchraydi yoki jamoa rahbari vazifasidan chetlatiladi. Odam jamiyatda yashab turib, undan chetda qola olmaydi.

Oila bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo‘g‘inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko‘rsatadigan tasiri benihoyat kattadir, Bolaning mustaqilligi nisbiy bo‘lib, u ko‘p jihatdan kattalar qaramog‘i va yordamiga muhtoj bo‘ladi. Otaonaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo‘ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishining stimulyatori bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini o‘zida qamragan mashg‘ulotlar asosan

bog'cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan cifatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Kattalarning mehnat faoliyatlariga taqlid qilish dastavval bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun xapakat qila boshladilar. Masalan.: qiz bolalar onalari kir yuvayotganda ayrim kichikroq narsalarni (dastrumolchalarni) chayishda qatnashadilar. Bog'cha yoshidagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari yetadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajaradigan ishlarini kattalarning o'zlari bir pasda qilib qo'yishlari mumkin degan ma'no kelib chiqadi. Sharq xalqida bir maqol bor: "Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri, hayotiy gap. Bolalarga biron yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko'zquloq bo'lib turish kerak, degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarda bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi. Masalan, o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to'g'risida bilim va tushunchalar berib boriladi. Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko'zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to'g'risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o'rgatish. Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- har bir kishi mehnatining ijtimoiy mohiyati;
- mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy o'zaro yordam berish munosabati;
- har qanday kasb ham muxim ekanligini tushuntirish.

Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish:

- mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;
- materiallarni tanlash (mehnat materiallari);
- jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblarni tayyorlab olish);
- mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari);
- natija-mehnat mahsuli.

Har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to'g'risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

Kichik guruh:

1. Ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni.
2. Mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari.
3. Mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli materiallar.
4. Ma'lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar.
5. Mehnat natijasi.
6. Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati.

O'rta guruhda mehnat to'g'risida qo'shimcha tasavvur va bilimlar beriladi: - Harakat sifati haqida.

- Kishilarning mehnatini yengillatuvchi moslamalar.
- Kishilarning mehnatga muhabbati.

Katta va maktabgacha tayyorlov guruhida yana yangi tasavvur va bilimlar beriladi:

Kishilar mehnatini yengillatadigan mashina va mexanizmlar to'g'risida.

Kishilar mehnati jamoa harakterida ekanligi to'g'risida.

Jamoa mehnati jarayonida kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning vosita va metodlari bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish har xil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga

o'stiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalar o'rtasida o'zaro ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, kattalar mehnatiga qiziqish va hurmat xissini shakllantirish bog'cha yoshidan boshlanadi va bu holat maktab davrida ham davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Умарова Г. У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. – 2015. – №. 19.

2. Умарова Г. У. Влияние компьютерных дидактических игр на формирование учебной деятельности младших школьников //Наука и инновации современные концепции. –2019.

3. Умарова Г. У. Развитие логического мышления школьников в процессе обучения математике //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2016. – №. 3-1.

4. Умарова Г. У. ВЛИЯНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В МЛАДШЕМ

ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2017. – №. 1

5. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р., Джаббарова С. З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольнообразовательных учреждений .

6. Камилова Г. А., Тураева О. С. К. ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Проблемы науки. – 2021. –

7. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО

ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ //Academy. – 2020. – №.

8. Kamilova G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020.

– Т. 1. – №. 1.